

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan

№ 17 (66298)
2001 yil 27 aprel, juma

Sotuvda erkin narhda



Суратдаги хаёл суриб ўтирган қиз - берунийлик тенгдошингиз Дилфуза Исҳоқова. У тумандаги чўпон овули - Қизилқалъадаги 10-қозоқ мактабининг 6-синф ўқувчиси. Аълочи, жамоатчи қиз. У билан суҳбатлашимизга сабаб фақат бу эмас. Сизни чўпон болаларининг ҳаёти билан яқиндан таништиргим келди.

Ўқувчининг ким эканлигини билиш учун аввало унинг кундалик дафтарини кўришни маслаҳат бераман. Ўзим шундай қилдим.

-Вой-бўй, олти соат дар-

сда олти беш олган кунларинг ҳам бор экан-а? Бунга қандай эришасан?

-Дарсга яхши тайёрланиб бораман. Дарс давомида "мен чиқай, мен чиқай" деб ўқитувчининг жонига тегаман. Айримлари қутилиб қўя қолай деб, савол бериб, баҳо қўйишади. Лекин қозоқ тили муаллимамиз Жаҳонул опа:

"Жим ўтир, Дилфуза, сенинг баҳоинг кўп, бошқалар ҳам чиқсин" деб уришиб берадилар.

-Гап баҳодами?

-Йўқ, баҳода эмас. Лекин синглим Бибиойша ва Биби-фотималар билан беш олишда ким ўзарга ўйнаймиз-да!

-Синфингда сен каби аълочи ўқувчилар кўпи?

-Ҳа. Саимова Раъно, Сахиев Сандибекларни ўқитувчиларимиз доим макташади.

-Тенгдошларинг чўпон овулидаги мактаб шароитлари қандай эканлиги билан қизиқадилар...

-Мактабимизда компьютер синфи бор. Чет тиллардан араб тилини ўрганамиз. Ме-

нинг ўзим мустақил равишда инглиз тилини ҳам ўрганипман.

-Сизлар овул марказида яшар экансизлар. Узоқ отарларга, чўпонлар ҳузурига борганмисиз?

-Тангриберган оғамнинг келинчаги - Набат кенной-

ғилган кўзичоқларни кўрсатишди.

-Катта шаҳарларда ҳам бўлганмисан?

-Жанаберган оғам оиласи билан Тошкентда яшайдилар. Ўтган йил ёзги таътилда уларникида меҳмон бўлдим. Паркка, циркка, ҳайвонот

боғига олиб боришди. Кўшни қизлардан кўғирчоқ тикишни ўргандим. Тошкентда зерикмадим, барибир овулим яхши-да...

-Овулда зерикмайсизларми?

-Зерикиш қаяқда, мактабдан келиб, уй ишларига қарашаман, дарсимни қиламан. Бўш пайтларимизда дугоналарим билан йиғилишиб, кўшиқ айтамыз, рақс ўрганамиз. Айниқса, "Шаҳзод" ва "Сетора"нинг кўшиқларини яхши кўрамыз. Уларнинг кўшиқларига ўзимиз рақс саҳналаштирамыз. Кўпгина қозоқ кўшиқларини биламыз. Сизга ҳам битта тўй жири айтиб берайми? Мана, эшитинг:

**Саулик айтсам қаумга,
Той басталди ауилда.**

Осинде улкан кишиде Агайинда бауирда.

Тойин тойга улассин,

Салган анин қир ассин.

-Жуда чиройли овозинг бор экан, кўшиқни ҳам яхши ижро этдинг. Мабоодо, хонанда бўлиш ниятида эмасмисан?

-Йўқ, шифокор бўлмоқчиман. Биласизми, бир марта ярим кечада эшигимизни тақиллатиб қолишди. Узоқ отардаги битта чўпон аёлининг тоби қочиб қолибди. Дадам дарров "УАЗ"ни миниб, йўлга отландилар. Бемор аёлни туман марказидаги шифохонага олиб келишди. Аёл даволаниб, тузалиб кетди.

Мен ҳам шифокор бўлгач, узоқ-узоқ яйловлардаги чўпонлар, уларнинг болалари касал бўлиб қолса, тузатаман. Фақат у вақтда вертолётлар бўлади. Мен бир зумда вертолёт билан узоқ отарга учиб бораман, у ердаги менинг ёрдамимга муҳтож беморни даволайман.

**Нафиса АБДУЛЛАЕВА,
"Тонг юлдузи" газетасининг жамоатчи мухбири.**

OVUL QIZI

им чўпон қизи. Бир сафар у уйига борганида, мен ҳам эргашидим. Дадамнинг



"УАЗ"ида қум-барханлар оралаб узоқ юрдик. Набат кеннойимнинг сингиллари Жодира, Ободонлар билан дарров чиқишиб кетдик. Мен отарга ўтган йил баҳорда, қумлар кўм-кўк бўлиб турганда борган эдим. Янги ту-

«...Yoshlarimiz sevib kuylaydigan «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!» qo'shiq'i har bir yurtdoshimizni Vatanni sevishga, unga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilishga da'vat etadi. Men ana shu qo'shiqning ma'no va mazmunidan kelib chiqib, barcha ota-onalar nomidan sizlarga, ko'zimizning oqu qorasi bo'lgan farzandlarimizga qarata aytmoqchiman: biz O'zbekistonni ham, yoshlarimizni ham hech kimga bermaymiz...»

Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

25 aprel - yoshlar uchun unutilmas kun bo'ladi. Chunki bu kuni Toshkentda O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Qizg'in muhokamalardan so'ng «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Dastur va Nizomi loyihasi bildirilgan

"KAMOLOT" TASHKIL TOPGAN KUN

va barcha viloyatlardan kelgan delegatlar - yoshlarning eng faol vakillari ishtirok etdilar. Anjumanda Harakatning tashabbus guruhi va Maslahat kengashi a'zolari, yoshlar masalalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdilar. Qurultoy o'z ishini hay'at va kotibiyat a'zolarini saylashdan boshladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning qurultoy ishtirokchilariga yo'llagan tabrigini Prezidentning Davlat maslahatchisi Xayriddin Sultonov o'qib eshittirdi.

Anjuman qatnashchilari Harakat Tashabbus guruhining hisoboti hamda Dastur va Nizom loyihasi bo'yicha ma'ruzani muhokama qildilar.

fikr va takliflarni hisobga olgan holda tasdiqlandi. Qurultoyda Harakatning Markaziy kengashi, nazorat va taftish komissiyasi a'zolari saylandi.

«Umid» jamg'armasi ijrochi direktorining o'rinbosari vazifasida ishlab kelgan Botir Ubaydullayev «Kamolot» yoshlar harakati Markaziy kengashining raisi etib saylandi.

Mamlakatimizda yoshlarni birlashtirish, ezgu ishlar sari yetaklash, ularning manfaatlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yangi ijtimoiy harakat vujudga keldi. Qurultoy ishtirokchilari, Harakat a'zolari ozod va obod Vatan barpo etish yo'lida fidokorona mehnat qiladilar hamda bu tashkilot barcha yoshlarimizning tayanchi va suyanchi bo'ladi, deb ishonch bildirdilar.



FOTIMA
Sen tug'ilgan kun



ZUHRALAR
Sen tug'ilgan kun

Fotima ham Zuhra ham bir-birini yetaklashib, besh yoshida maktabga borishgan. Hozir ular yetti yoshda. Ha, 19 aprel kuni yetti yoshga to'lishdi. Shu kuni ularning sevimli xonandasi Ilhom Farmonov qo'shiq kuylab, Fotima va Zuhralarni tabrikladi. Egizaklarning suyunganini bir ko'rsangiz edi!

Fotima hayotni qanday qabul qilsa, gap-so'zlari-yu yurish-turishlarida shundayligicha bayon qilib beradi. Zuhra esa aksi: bosiq, uyatchan, o'n o'ylab, bir so'yilaydigan, yetti o'lchab, bir kesadiganlardan. Ammo shu kuni hatto Zuhra ham raqsga tushib ketdi. Aslida ikkala egizak san'atga, ayniqsa raqs tushishga juda qiziqishadi. Oila davrasida, mahalladosh dugonalari oldida tez-tez «konsertlar» ham berib turishadi. Kitob o'qishadi, matematikaga qiziqishadi. Yana qiziqishlari boshqa tillarni o'rganishga alohidadir. Ingliz tilini birinchi sinfdan o'rganishayotgani

sabablimi, «Mushuk va sichqon» «teatri»ni ko'rganlar egizaklar kelajakda aktrisa bo'lishsa kerak, deb ham o'ylashadi. Aslida, har ikkisining kompyuter sabog'ini olishi-yu o'rganganlarini namoyish qilishini ko'rsangiz, «zamon qizi-da ular, kelajagimiz poydevori, pishiq-puxta shu yoshlarimiz-da» deb quvonib ketasiz. Quvonchlar ko'paysin, bizda ham, egizaklarda ham! Katta hayot ostonasida behad orzu-umidlar bilan sizga kulib boqib turgan bu egizaklarning ko'zidan kulgu, yuzlaridan tabassum arimasin. Kelajakda bu qizaloqlar bilan har kuni soatlab shug'ullanadigan onasi Shoiraxon ham, ustoz Hidoyatxonlar ham, qolaversa, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 49-maktabning o'quvchi va o'qituvchilari ham faxrlanib, «Bizning Fotima-Zuhralar» deb, ularning yutuqlari haqida to'lqinlanib gapirishsin!

Abduhamid
ABDUG'AFFOROV

RAHMAT, DILDORA OPA!

Mana, to'rtinchi chorakni ham boshlab yubordik. Hademay 5-sinfga o'tamiz. Bu narsa bizni quvontiradi albatta. Lekin ilk bor qo'limizga qalam tutqazgan, «Alifbe»ni o'rgatgan birinchi o'qituvchimiz bilan xayrlashishimizni o'ylasak, xafa bo'lib ketamiz. Chunki onamizdek mehribon ustozimiz Dildora opa Ibragimova biz uchun juda qadrdon bo'lib qolganlar. Ular darslarni qiziqarli o'tish bilan birga Hadis va rivoyatlardan ham o'qib beradilar. Va bu bilan mitti qalblarimizda yomonlikka nafrat, yaxshilikka muhabbat uyg'ota oldilar. Buning uchun ustozimizdan bir umrga minnatdormiz.

Mahmudjon AZIMOV,
169-maktabning 4-«G» sinf o'quvchisi.



Assalomu alaykum «Tong yulduzi» ijodkorlari. Sizlarning gazetalarigizni doimo zo'r qiziqish bilan o'qib boraman. Undagi she'r va maqolalarni o'qib, zavqlanaman. Gazeta sahifasidagi «Bilag'onlar diqqatiga» rukni ostida berilayotgan tengdoshlarimning maktublarini o'qib boraman. O'zim ham bir necha xatolar topdim. «Tong yulduzi»ning 2001 yil, 16 mart sonidagi xato qilingan so'zlar quyidagilar: 1-sahifasida «ixtisoslashgan», 2-sahifasida «5-«E» sinf», «yuqori», 3-sahifasida «markazimiz», 4-sahifasida «qadrlili», «talab», «tushishi», «aniqlaganimizda», 6-sahifasida «chumchuqcha», «yozda», 8-sahifasida «joiz», «nashr».

Salimaxon MAMATXONOVA,
Andijon shaharidagi
A.Cho'lpov nomli 2-gimnaziyaning 7-sinf o'quvchisi.

«BULBULCHA»NING YANA BIR BULBULI

Dildora Mirsodiqovani tanigan-bilganlar shunday atashadi. U bor-yo'g'i 9 yoshda. Toshkent shahridagi 300-lisey-maktabining 3-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Shu bilan birga mana to'rt yildirki, opasi Shahnoza bilan birgalikda «Bulbulcha» ashula va raqs dastasiga muntazam qatnab kelyapti. Dastaning rahbari Sherat aka Yormatovning umidli shogirdlaridan. Ustozidan o'rgangan qo'shiq va raqslarining sanog'i yo'q. Nafaqat tengdoshlari, ota-onasi, buva va buvilari-yu ustozlari ham uning ijrosidagi «Men oftobning qiziman», «Dildoraning allasi», «Qizaloq» kabi qo'shiqlarni miriqib tinglashadi. «Xorazmcha», «Doira», «Andijon polkasi», «Hindcha» raqslarni berilib tomosha qilishadi. Maktablaridagi hech bir tadbir va tantanalari opa-singillar ishtirokisiz o'tmaydi. Kelgusida ajoyib san'atkor bo'lishni orzulayotgan va bu yo'lda tinimsiz izlanayotgan Dildoraxonga omadlar tiladik.

Hosiyat RAJABOVA,
O'zbekiston Milliy Universiteti
jurnalistika fakulteti talabasi.

TARIXSIZ KELAJAK YO'Q

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin o'z tili, madaniyati, qadriyatlariga qiziqish ortib bordi. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, o'zi tug'ilib o'sgan joyining tarixini bilishga qiziqadi.

Yurtimizdan ko'plab buyuk allomalar, fozilu- fuzalolar, kuchli siyosatdonlar, sarkardalar yetishib chiqqanligini yaxshi bilamiz. Ularning o'gitlaridan bahra olish, biz yosh avlodning burchidir. Prezidentimiz 9- mayni «Xotira va qadrlash kuni» deb e'lon qilgan kunlaridan boshlab, o'z tariximizga, avlod-ajdodlarimizga bo'lgan hurmat yanada oshdi.

Yaqinda maktabimizda ana shu mavzuda kecha o'tkazildi. Tadbir bahona buyuk ajdodlarimiz, allomalarimiz nomlarini yod etdik. Spitamen, Jaloliddin

Manguberdi, To'maris, Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy kabi avlodlarimizning timsollari o'quvchilar tomonidan yana bir bor jonlandi. XX asrning tarix silsilalari bir-bir yodga olindi. Ayniqsa, 1991 yil 31 avgustga alohida urg'u berildi.

Kechaning qiziqarli, jonli, bahsmunozaralarga boy chiqishida tarix fani o'qituvchisi Zulxumor opa Rahmonovaning, shuningdek, bilim olishimiz uchun shart- sharoitlar yaratib berayotgan maktabimiz direktori Rahimjon aka Qosimov hamda o'qituvchimiz Mavluda opa Sobirjonovalarning mehnatlari katta bo'ldi.

Madina TOPILOVA,
Toshkent shahridagi
197- maktabning
9-«V» sinf o'quvchisi.

Tiriklik manbai, obihayot bo'lmish zilol suv haqida gap ketganda, u haqda juda chiroyli gaplar aytishimiz, fikrlar yuritishimiz mumkin. Tog'lar bag'ridan, katta va kichik ariqlardan oqib kelayotgan zilol suvga qarab quvonchingizga quvonch, yuzingizdagi tabassumga tabassum qo'shiladi. Bu quvonch, bu tabassum bejiz emas. Obihayot suvimizning har bir tomchisi bemor kishiga ham o'zgacha malham bo'lishi mumkin. Qiryelib, sahiy quyoshning zarrin o'ynoqlab, to'lib-toshib quyilib, ekinlarga, bog'larga, o'simliklarga jon bag'ishlash ham, o'simliklar ham yashay yaxshi hosil bermaydi. Suv muhim ahamiyatga ega bo'lgan suv haqida qalam tebratmagan qog'ozga tushirmagan ham qanchalar qadrlili ekanligi haqida asar yaratmagan yozuvchilar bo'lmasa kerak.

Ushbu satrlardan ham suv hayotda muhim ahamiyatga ega ekanligini bilishimiz mumkin. Endi Mirzakalon Ismoilning «Farg'ona tong otuncha» romanidagi jummalarga e'tibor beraylik. Romanda yozilishicha, boylar zulmidan ezilgan mehnatkash dehqonlar suvsizlikdan qiynaladilar va bir boyning yolg'on va'dasiga ishonib, qiynalib suv chiqaradilar. Dehqonlarning mehnati samarasiz qolmaydi, ammo umidlari payhon bo'ladi. Boylar kambag'allarning oxirgi nonini ham tortib olishga harakat qiladilar. Kambag'allar qo'zg'olon ko'tarib, ularning boyligini, uy-joyini yer bilan yakson qiladilar. Ammo bu yo'lda gunohsiz insonlar halok bo'ladi. Yozuvchi ushbu romanida insonlarning suvga bo'lgan ehtiyojini, suvning qadrini juda chiroyli qilib tasvirlagan. Men bu romanni o'qib, go'yo o'tgan davrga qaytgandek bo'ldim va shu bilan birga kelajakka ishonch bilan qaray boshladim. Men suvning qadri haqida ko'p narsalarni ushbu asarlardan bilib oldim. O'tgan davr bilan hozirgi davrni solishtiraylik. Hozirgi kunda atmosferamizning zaharlanib, insonlar sog'lig'iga putur yetishida suvning ifloslanishi ham sabab bo'lmoqda. Buning asosiy sababchilari o'zimiz. Chunki qayerga nazar tashlamang bolalarning, hatto kattalarning ham suvga ahat supurishlarining guvohi bo'lalimiz. Bizlar bunday ishlarga qo'l urmasligimiz uchun eng avvalo teran fikrga ega bo'lmoq'imiz, hayotimizni bir kun suvsiz tasavvur qilib, suvning qadriga yetishimiz lozim. Baliqlar suvda yashab, hayot kechiradilar. Insonlar suvda yashamasalarda, o'z jismlarini suvsiz tiklay olmaydilar. Shunday ekan, inson doimo suvdan foydalanadi. Agar suv ifloslangan bo'lsa, turli kasalliklarga yo'liqishimiz mumkin. Ba'zi joylarda hukumatimiz tashabbusi bilan quvurlar orqali ichimlik suvlari yetkazilmoqda. Biroq chekka qishloqlarda bunday sharoitlar yo'q. Shu sababli kattayu-kichik, barchamiz tabiatimizga hissa qo'shib, suvning ifloslanishidan, shu bilan birga atmosferani ifloslanishidan saqlab, oldini olaylik. Bu esa eng avvalo o'zimizga, sog'lig'imizga foydadir. Suv yaxshi, toza suv esa undanda yaxshi. Axir suv tiriklik manbai, obihayotdir. Qayerda suv bo'lsa, o'sha hayot barqaror. Suvni ifloslanishidan saqlash har bir komil insonning yuksak vazifasidir. Men barchangizni suvni, obihayotni toza saqlashga chaqiraman.

Sohiba ZAFAROVA,
Buxoro viloyatidagi 60-ixtisoslashgan maktabning 7-sinf o'quvchisi.

SAVOBLI ISH

Maktabimizda bir gap tarqaldi. Qo'shni qishloqdan ichki ishlar xodimi Murod aka Kenjaboyev darsdan keyin o'g'il bolalarni yig'ib, sport to'garagi tashkil qilibdilar. Hatto, o'z yonidan to'p, turli sport anjomlari sotib olidilar. Haftasiga uch soatdan sport musobaqalarini olib borayotgan Murod aka maktabda yetarli sharoit yo'qligi sabab mashg'ulotlarni tabiiat qo'ynida boshlab yuboribdilar.

Maktabimizning sobiq o'quvchilari ham bu ishga bosh-qosh. Ayni kunlarda maktabimizning sport maydonchalari yanada kengaytirilayapti. Har kuni xashar. Abdurahmon Sultonov, Baxtiyor Ibragimov, Jahongir Yo'ldoshev, Kamoliddin To'laganovlar qo'llaridan kelgan jonbozlik ko'rsatib, boshqa o'quvchilarga o'rnak bo'layaptilar. Ishlar qizg'in ketayapti. Ishqilib ezgu niyatli insonlarning savobli ishlariga ko'z tegmasin, deb yuborib keladi. Kelajakda sport yulduzlari chiqaraman, deya orzu qilgan Murod akaga rahmatlar deymiz.

Sherzod TO'LAGANOV,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l
tumanidagi 3- maktabning
9-sinf o'quvchisi.

BIZ QONUNNI BILAYAPMIZ

Maktab o'quvchilarining bilimini boyitish maqsadida har yili «Siz qonunni bilasizmi?» mavzuida bahs bo'lib o'tadi. YAqinda Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumanida bo'lib o'tgan munozaralarda 56 nafar maktab o'quvchilari o'zlarining qanchalik huquqiy bilimiga ega ekanliklarini ko'rsatishdi. Bir necha yillardan buyon g'oliblikni hech kimga bermayotgan 46- maktab o'quvchilari bu yil ham «Biz qonunni bilayapmiz» deb javob berishdi. 46- maktab o'quvchilari ziyalik bilan bergan javoblari hay'at a'zolariga ma'qul bo'ldi va viloyat bosqichiga yo'llanma oldilar. Ikkinchi o'rin 33- maktabga, uchinchi o'rin esa 25- maktab o'quvchilariga nasib etdi.

-O'quvchilarimiz juda tirishqoq, iqtidorli, - dedilar 46- maktab direktori Abdumutal Umrzoqov. - Ular bilim olish bilan birga sportga ham qiziqadilar. Jumladan, 9- sinf o'quvchisi Nilufar Egamnazarova, Nargiza Tursunqulova, Gulbahor Yo'ldoshevalar tennis bo'yicha yaxshi natijalarga erishayptilar. Sport musobaqalarida o'qituvchilarimiz ham bo'sh kelishmaypti. Direktorning so'zlaridan bildimki, maktab o'quvchilari har sohada birinchi ekanlar. Buning boisi - maktab jamoasining talabchani izlanuvchanligida deb tushundim.

X. HIMMAT qizi.

USTOZGA TA'ZIM

Xalqimiz fidoyi farzandlarini qadrlaydi, hurmat qiladi. Qishlog'imizdagi Sobir Rahimov nomli 23-o'рта maktabda o'qituvchilik qilayotgan Dilorom opa Hojiqulova ham ana shunday el sevgan kishilardan.

U kishi bolalarga ta'lim beribgina qolmay, komil insoniylik fazilatlarini bilgan yoshlarga o'rnak bo'lyaptilar. Men ustozimni yaxshi ko'ribgina qolmay, shogird sifatida Dilorom opaga ta'zim qilaman.

Ustoz xayrli ishingizda aslo charchamang, hamisha sog'-salomat bo'ling, qilgan mehnatlaringizning rohatini ko'ring.

Bizga bergan ta'lim va ezgu hislatlaringiz hayot yo'llarimizdagi nurli chiroqdir, muhtaram ustoz!

Dilnoza GUZAROVA,
Qashqadaryo viloyati,
Nishon tumanidagi
S. Rahimov nomli maktabning
8-«B» sinf o'quvchisi.

«TV» GA QIZIQISH KUCHLI

Fransiyaliklar ko'p vaqtlarini kitob mutolaasi bilan o'tkazadilar. Kitob o'qimaydiganlari ham uchrab turadi. So'rovnomadan fransuzlarning to'rtinchi yilda bitta ham kitob o'qimasliklari, 35 foizi esa bir yilda beshtagina kitob o'qishi ma'lum bo'ldi. Undan tashqari fransuzlar bo'sh vaqtlarini oynai jahon oldida o'tkazisharkan, jumladan, bolalar ham. Bu - bir yilda ming soatga yaqin vaqt televizor qarshisida o'tiladi degani. Oynai jahon kanallarining borgan sari ko'payishi va qiziqarli bo'lishi, bir-biridan murakkab video o'yinlarga bolalarning talabi oshishi, shuningdek, Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati hisobiga ham fransuzlar dam olish kunlarini uyidan chiqmay o'tkazadilar. Texnikaning bunday taraqqiyoti hayotdagi boshqa tomoshalarni siqib chiqarmoqda. Masalan, sirk fransuzlar uchun yaqin o'tmishga aylangan. Teatr esa deyarli davlat hisobiga yashamoqda. Kinotomoshabinlar esa oxirgi 40 yil ichida uch barobar kamayib ketdi. Shunday bo'lsa-da, fransuz kinosi o'zining jozibasini saqlab qolgan. Bir yilda 130 ta film suratga olinadi.

TOMORQADAGI YORDAMCHILAR

Fransuzlar ikki xil mashg'ulotni sevishadi. Qo'l ishlari, ya'ni hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lishni va tomorqada ishlashni. Qo'l mehnatlari bilan bunyod etilgan tovarlarning bir yilgi sotuvi 90 mlrd. frankni tashkil qiladi. Bu yuqori ko'rsatkich bo'lib, tarbiyaning eng to'g'ri yo'nalishi hamdir. Chunki bolalar o'z ota-onalari bilan hamkorlikda kerakli hunarga ega bo'ladilar.

Bog'da yoki tomorqada ishlash esa tabiat qo'ynida vaqt o'tkazishga va jismoniy harakatga qo'l keladi. Fransiyada 12,5 million bog' va tomorqalar mavjud bo'lib, ularga har yili 35 mlrd. frank sarflanadi. Bog'da ishlayotgan bolalarni ko'z oldingizga keltiring-a. Haqiqatan ham gullarni parvarishlab, daraxtlarni oqlab, mevalarni terib o'tkazgan vaqtda u nafaqat ota-onasiga ko'maklashadi, balki o'ziga ham bir olam yangiliklarni kashf etadi. Tabiatga yo'g'rilgan mehri yanada teranlashadi.

SPORT, ENG AVVALO SPORT

Yuqoridagi ma'lumotlar balki fransuzlarni «televizorchilar» deyishga sabab bo'lib qolgandir. Biroq, aksincha



Fransuz o'quvchisi Etyen Bakro 14 yoshda shaxmat bo'yicha eng yosh xalqaro grossmeystri bo'lib, jahon shaxmatchilarining birinchi o'nlik safidan joy olgan.

ular sportni eng birinchi o'ringa qo'yadilar. O'g'il bolalarning uchdan ikkitasi, qizlarning teng yarmi asosan sport bilan shug'ullanishadi. Sportning eng mashhurlari - futbol, regbi, velosiped poygasi, tennis bo'yicha yirik milliy va xalqaro musobaqalar tez-tez

Muattar parfyumeriya buyumlari bilan mashhur davlat - Fransiya haqida ko'p eshitgansiz. Fransiyaning poytaxti Parij - dunyodagi eng chiroyli shaharlardan biridir. U bundan ikki ming yillar ilgari Sena daryosi o'rtasidagi orolda vujudga kelgan. Parijda qadimiy binolar ko'p. Luvr saroyida rasm va haykallarning dunyodagi eng yirik majmualari to'plangan. Sorbonna universiteti dunyodagi eng qadimiy universitetlardan biri hisoblanadi. Bibi Maryam ibodatxonasi, ulug'vor Eyfel minorasi jahonga mashhur.

uyushtiriladi. Velopoyga «Tur de Frans» esa haqiqiy milliy bayramga aylanadi. Shuningdek, sportning boshqa turlari suv sporti, chang'i va konki, dzyudo, fextovaniye, golf

vaqt o'tgan sayin o'sib boradi. Boshlang'ich ta'lim besh yiliga

FRANSIYALIK BOLALARGA BIR NIGOH

ham an'anaviy tus olgan. Fransuzlar jismonan faollik uchun ham sport bilan shug'ullanishadi.

ONA MAKTABI

Fransiyadagi bog'chalarni «ona maktabi» deyishadi. Unga 1887 yil asos solingan. «Ona maktabi» ta'lim bilan tarbiya birgalikda olib boriladigan maskan. Unga 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar boradi. Mashg'ulotlarni boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'tadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim asosiy ta'lim uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'qishni, yozishni o'rganadi. Nutqi rivojlangan, so'zlash qobiliyati

o'sgan bo'ladi. Bolaning

o'zi ham mutaxassislar tomonidan har tomonlama o'rganilib, kerakli muolajalar oladi. Masalan, psixologiyasi o'rganiladi, aqliy mehnatga layoqati, jismonan sog'lomligi, nutq benuqsonligi inobatga olinadi. Bunday maktablarda bolalarning ta'lim olishi majburiy emas, biroq talabgorlar ko'p. Shuning uchun ham 99 foiz fransuz bolalar shunday maktablarga qatnaydilar. Bunday maktablarning qurilishi va ta'minoti kommun tomonidan olib boriladi. Maktabdagi yordamchi xizmatchilarni ham bu tashkilot tayinlaydi. O'qituvchilar esa Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qo'yiladi.


BOSHLANG'ICH MAKTAB

1833 yildan boshlab davlat maktablari kommunal maktab hisoblanadi, ya'ni maktablarning qurilishi va ta'minoti kommun birlashmasi tomonidan amalga oshiriladi. Jyul Ferri (1881-1882) tomonidan kiritilgan taklifga binoan boshlang'ich ta'lim majburiydir, davlat maktabidagi ta'lim esa yuqori darajada va bepul. Shuningdek, davlat maktabni, o'qituvchilarning faoliyatini nazorat qiladi. O'z navbatida universitet qoshidagi pedinstitutda tahsil olgan o'qituvchilar maktabga katta konkurs orqali saralab olinadi. Pedagogika bilim yurtini tugallagan o'qituvchilarning toifasi esa

mo'ljalangan bo'lib, uch yil ona maktabidan olgan bilimiga tayangan holda tayyorlov kursga, qolgan vaqti chuqurlashtirib o'qitishga qaratilgan. 1998/1999 o'quv yilidan horijiy tilning o'qitilishi ham majburiy deb qabul qilingan. Bugungi kunda boshlang'ich maktabda 6,4 mln. bola o'qimoqda. Ulardan 800 ming nafari xususiy maktablarda ta'lim olishmoqda.


KOLLEJ: ASOSIY ZVENO

Fransiyada bugun 7 mingta kollej mavjud bo'lib, u yerda 3 mln. dan ko'proq o'quvchilar o'qiydilar. Kollejdagi ta'lim to'rt yilga



mo'ljalangan: adaptatsiya, asosiy, orientatsiya sikllariga bo'linib o'tiladi. Bu o'rta ta'limning birinchi etapi hisoblanadi. Davlat kollejlarda yoshlarning 80 foizi tahsil olmoqdalar. Kollejlarining qurilishi, ta'minoti departamentlar majburiyatiga kiradi. Davlat o'z navbatida o'qituvchilarga maosh, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, texnika qurollari, ya'ni kompyuter va audiovizual apparatlari bilan ta'minlaydi. Xususiy kollejlarda ta'lim

olayotganlarning soni keyingi 20 yilda 2,5 foizga o'sib ketdi. Xususiy kollejlarda davlat bilan kelishgan holda ish olib boradi. Chunki u yerdagi o'qituvchilarga davlat tomonidan maosh to'lanadi. O'qishni tugatganda 16 yoshga to'lgan o'smirlarning 94 foizi kasb-hunarga yaroqligi haqida shahodatnoma oladilar va litseylarda yana o'qishni davom ettiradilar. Boshlang'ich



Janob Jerar BARBARE O'zbekistondagi Fransiya elchixonasi Til va Ta'lim hamkorligi bo'limi atashesi. Janob Barbare o'zbekistonlik yoshlarga fransuz tilini o'qitish uslubining 200 turini taqdim etib, xohlovchilarning fransuz tilini mukammal o'rganishlariga xayrixohdir.

maktablarda bir muallim o'qitsa, kollejdagi har bir fanning o'z o'qituvchisi bo'ladi. O'quvchilar o'zlari qiziqqan fan bo'yicha dars jadvali tuzishib, o'zi xohlagan darslarni ko'proq o'qishi mumkin.

LISEYDAN MAQSAD - BAKALAVRLAR

Xalq Ta'limi Vazirligiga tegishli litseylarda o'qishni xohlovchilar bugungi kunda juda ko'pchilikni tashkil qiladi. 78 foiz o'smirlar 2600 ta davlat litseylarida ta'lim olmoqdalar. Ikki turdagi - umumiy ta'lim va kasb-hunar ta'lim o'qitiladigan litseylar mavjud.

Umumiy ta'lim litseyda 1,5 mln. nafar o'quvchilar saboq olmoqdalar. Uch yillik ta'limdan so'ng litseychilar yoki umumiy soha bo'yicha yoki texnik soha bo'yicha bakalavr nomini olish uchun imtihon topshiradilar. Imtihonni imtiyozli topshirgan umumiy soha bakalavrlari universitetning boshlang'ich pog'onasiga qadam qo'yish bilan barobar hisoblanadi. U uch asosiy tartibdan biriga tayanadi: adabiyot (L), tabiiy fanlar (S), iqtisod (ES). Texnik soha esa bir qancha mutaxassisliklarni mujassamlaydi: tabiiy fanlar va texnika (STT), tabiiy fanlar va sanoat texnologiyasi (STI), tabiiy fanlar va laboratoriya texnologiyasi (STL) va meditsina-ijtimoiy fanlar (SMS). Kasb-hunar litseylarida ta'lim olayotgan taxminan 700 ming o'quvchilar turli yo'nalishli mutaxassis bo'lib bitiradilar. Litsey bitiruvchilarning 79 foizi imtihonlarni imtiyozli topshirib, bakalavr nomiga ega bo'lishadi. Undan so'ng xohlovchilar oliy o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin.

Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi taqdim etgan materiallar asosida Muharrama PIRMATOVA tayyorladi.



Il-de-Frans - yevropadagi eng boy region. Parijning sharqida joylashgan Lya Defans kvartali.

«ИҚТИСОДИЁТДАҲ САБОҚЛАР» СИРТҚИ МАКТАБ КОНКУРСИНИНГ 2000-2001 ЎҚУВ ЎСМАКТИ МАВСУМИ ДАВОМ ЭТМОҚДА

Республикамиз бозор иқтисодиёти томон шахдам одимлар билан бораётган бир пайтда аҳолининг иқтисодий саводхонлиги ва янги иқтисодий тафаккурни шакллантиришга бўлган эҳтиёж тобора долзарб бўлиб бормоқда. Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг 2001-2005 йилларга мўлжалланган иккинчи босқичида кўзда тутилган режалар, иқтисодий таълимнинг сифат ва мазмун жиҳатидан янги даражага кўтариш вази-фасини келтириб чиқаради.

2000-2001 ўқув йилги янги мавсумини эълон қилди. Конкурс март-май ойлари давомида бўлиб ўтмоқда. Ҳар ҳафтада «Тонг юлдузи» газетасининг ҳар бир со-нида конкурс топшириқлари ва бу топшириқларни бажариш учун зарур бўла-диган назарий материаллар бериб борил-моқда.

«Иқтисодиётдан сабоқлар» сиртқи мактаб конкурси учинчи бор ўтказил-моқда. Конкурс ташкилотчилари ўтган йилги тажрибалардан келиб чиқиб, «Иқтисодиётдан сабоқ-лар» сиртқи мактаб конкурси билан бир қаторда яна икки йўналиш бўйича ало-ҳида кичик конкурслар ўтказишга қарор қилдилар:

I йўналиш: Энг яхши иқтисодий маз-мунадаги мақолалар конкурси.

II йўналиш: Энг яхши бизнес режа лойиҳаси конкурси.

«Иқтисодиётдан сабоқлар» сиртқи мактаб конкурсининг ўзагини газетада бериб бориладиган дарс топшириқлари асосидаги конкурс ташкил қилади. Бошқа кичик конкурсларга қатнашмоқ-чи бўлган ўқувчилар бу асосий конкурс шартларини бажариб боришлари лозим. Кичик конкурсларга оид жавоб матери-алларини якунловчи босқичга март -

апрел ойлари давомида газета номига юбори-шингиз лозим бўлади.

Энг яхши деб топилган ишлар газета саҳифаларида ёритиб борилади.

«Иқтисодиётдан сабоқлар» сиртқи мактаб конкурсига оид дарс материал-лари ва топшириқлари ҳар ҳафта газе-та орқали бериб борилади. Сиз дарс ма-териалини ўрганиб чиқиб, топшириқлар-ни бажариб, жавоб йўлашингиз зарур бўлади. Топшириқ шартларини газета-да кўчириб олишингиз ёки ундан ксе-

Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланади

роқда нусха олиб, тўлдириб жўнати-шингиз мумкин. Шунингдек, топшириқ-ни бевосита газетадан қирқиб олиб, тўлдириб йўллашингиз ҳам мумкин.

Конкурснинг якуний босқичи 2001 йил май ойида Тошкент шаҳрида ёки ёз пай-тида бирор сўлим оромгоҳларнинг бири-да бир неча кун давомида ўтказилиши мўлжалланмоқда. Якунловчи босқич ол-динги йиллардагидан фарқ қилади. Бу йилги конкурснинг якунловчи босқичига энг зукко ўқувчилар таклиф қилинади-лар. Бу йил ҳам сизларни ҳомийларимиз-нинг телевизор, магнитофон, аудиопле-ер, компьютер ўйинлари, ўқув кўллан-малари ва иқтисодиётга оид китоблар тўплами каби қимматбаҳо совғалари кутмоқда.

Кўрик-танлов материалларини газе-тамиз таҳририятига йўлашингизни сўраймиз. Манзил: 700011, Тошкент, Навоий кўчаси 30, «Тонг юлдузи» газе-таси, «Иқтисодиётдан сабоқлар» сиртқи мактаб конкурсига.

Диққат, конкурс!

17-дарс

ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАР

Маълумки, ҳар давлат ҳуду-дида ўз миллий валютаси муо-малада бўлади. Шу сабабли, бо-шқа давлатлар билан ташқи иқтисодий алоқалар мамлакат ичкарасидаги иқтисодий ало-қаларидан фарқ қилади.

Мамлакатга бошқа давлатлар-дан товар сотиб олиншини **импорт** деб аташади. Аксинча, мамлакатда ишлаб чиқарилган товарларни бошқа давлатга со-тишни **экспорт** деб аташади.

Товар бошқа давлатдан сотиб олинаётганда, ўша давлат ва-лютасида, яъни пул бирлиги-да ҳақ тўлашга тўғри келади. Худди шундай бирор мамла-катда ишлаб чиқарилган маҳ-сулот шу мамлакат валютаси-да сотилади. Натижада, бир давлат пулини иккинчи давлат пулига алмаштиришга эҳтиёж пайдо бўлади.

Бир мамлакат пул бирлиги-нинг бошқа мамлакат пул бир-лигида ифодаланган қиймати **валюта курси** деб аталади. Баъзи давлатнинг пул бирлик-лари (масалан, АҚШ доллари, немис маркаси ва бошқалар) универсал, ҳаммабоп валюта ролини бажаради.

АҚШ доллари ҳатто жаҳон пули сифатида тан олин-ган.

Мамлакатларнинг им-порт ва экспорт ҳажмла-ри ўзгариб туради. Баъ-зида импорт ҳажми экс-порт ҳажмидан кўп бўла-ди, баъзида эса аксинча, экспорт импортдан кўп бўлади.

Давлатнинг импорт ва экспорт ҳажмлари унинг **тўлов балансида** ўз ифо-дасини топади.

Икки мамлакат орасида-ги тўлов балансига қараб, бир давлат пулининг ик-кинчи давлат пулидаги валюта курси белгилана-ди.

Мамлакат валютасининг бошқа давлат валютасига нисбатан курси ошганда - импорт, пасайганда эса - экспорт қулай бўлади.

Мамлакат маҳсулотни қанча кўп экспорт қилса, бу мамлакат иқтисодиёти-нинг ривожланганлигидан далолат беради. Ривож-ланган мамлакатларда им-

портга қараганда экспорт ҳажми кўп бўлиб, кўпинча тайёр маҳсулотлар кўрини-шида бўлади. Ривожланаёт-ган мамлакатларда эса бу-нинг тескараси, импорт экс-портга қараганда кўп бўла-ди. Улар тайёр кўринишда-ги маҳсулотларни сотиб ол-салар, асосан хом-ашё кўри-нишидаги маҳсулотларни со-тадилар.

Мамлакат экспорт ҳажми-нинг импорт ҳажмидан қанчалик кўпи-лигига қараб, унинг жаҳон бозоридаги иш-тирокини, мавқесини ва валютасининг қанчалик кучли эканлигини билиш мум-кин.

Мустақиллик туфайлигина, Ўзбекистон Республикаси жаҳон бозорининг, ҳамжа-миятининг тенг ҳуқуқли аъзосига айлан-ди. Ўзбекистон ҳозирча кўпроқ хом ашё-ни экспорт қилиб, асбоб-ускуналарни та-шқаридан сотиб олмоқда. Қуйида, Ўзбе-кистон Республикасининг 1997 йилги экс-порт ва импорт ҳажмлари кўрсатилган жадвални келтирамыз.


Ўзбекистон Республикаси экспорт ва импортининг товар таркиби

	1997 йил млн. АҚШ доллари	1996 йилга нисбатан %	Жамига нисбатан %
Экспорт	4387,5	95,6	100
шу жумладан:			
пахта толаси	1579,4	90,3	36,0
озик-овқат товарлари	163,9	79,8	3,8
кимё маҳсулоти ва пластмассалар	76,1	68,4	1,7
энергия қувватлари	527,9	190	12,0
қора ва рангли металллар	200,4	124,9	4,6
машина ва асбоб-ускуналар	277,6	210	6,3
хизматлар	361,1	95,2	8,2
бошқалар	1201,1	76,1	27,4
Импорт	4523,0	95,8	100
шу жумладан:			
машина ва асбоб-ускуналар	2075,9	122,9	45,9
озик-овқат товарлари	873,2	62,8	19,3
кимё маҳсулоти ва пластмассалар	567,5	96,2	12,5
энергия қувватлари	25,1	49,8	0,6
қора ва рангли металллар	340,2	107,1	7,5
хизматлар	337,2	359	7,5
бошқалар	303,9	45,1	6,7

Ўзбекистон Республикасининг ташқи савдо обороти (млн. АҚШ долларида)

	1996 йил	1997 йил	1997 йилда 1996 йилга нисбатан %
Ташқи савдо обороти	9311,3	8910,5	95,7
Экспорт	4590,2	4387,5	95,6
шу жумладан:			
МДҲ мамлакатлари	1050,6	1508,6	143,6
Бошқа чет эл мамлакатлари	3539,6	2878,9	81,3
Импорт	4721,1	4523,0	95,8
шу жумладан:			
МДҲ мамлакатлари	1517,7	1268,2	83,6
Бошқа чет эл мамлакатлари	3203,4	3254,8	101,6

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО БОЗОРДА



1. Қуйидаги таърифларни тўлдириңг.

а) Импорт деб _____

_____ га айтилади.

б) Экспорт деб _____

_____ га айтилади.

в) Валюта деб _____

_____ га айтилади.

с) Валюта курси деб _____

_____ га айтилади.

д) Тўлов баланси деб _____

_____ га айтилади.

ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАР ДАРСИ
ЮЗАСИДАН САВОЛ ВА ТОПШИРИҚЛАР

2. Бўш жойларга «импорт» ёки «экспорт» сўзларини қўйиб, жумлаларни тўғри бўладиган қилиб тўлдириңг.

1. Ривожланган давлатлар одатда _____ ҳажми _____

_____ ҳажмидан юқори бўлади.

2. Ривожланаётган давлатда эса _____ ҳажми _____

_____ ҳажмида юқори бўлади.

4. Тўғрисини топиңг.

Бир давлатнинг иккинчи давлатга импорти экспортига қараганда камайди. Бу ҳолатда, бу давлат валютасининг иккинчи давлат валютасига нисбатан курси _____

а) камайди

б) ўзгармайди

в) ошади

3. Республикамизга нималар импорт ҳисобига олиб келинади ва нималар экспорт қилинади? Жадвални тўлдириңг.

Республикамиздаги импорт маҳсулотлар	Республикамиздаги экспорт маҳсулотлар
1. _____	1. _____
2. _____	2. _____
3. _____	3. _____
4. _____	4. _____
5. _____	5. _____
6. _____	6. _____
7. _____	7. _____
8. _____	8. _____

17-топшириқ

5. Бўш жойга «импорт» ёки «экспорт» сўзларидан мос келганини қўйиб, жумлаларни тўғри бўладиган қилиб тўлдириңг.

Мамлакат валютасининг бошқа давлат валютасига нисбатан курси ошганда, _____

_____ фойдали бўлади, пасайганда эса _____

_____ фойдали бўлади.

6. Мамлакатнинг иқтисодий салоҳиятини тўлов балансига қараб аниқласа бўладими?

Жавоб: _____

7. Қуйидаги жумлалар рост бўлса, мос катакларга «Р» ҳарфи, ёлғон бўлса, «Ё» ҳарфини, рост ёки ёлғонлигига иккилансангиз «?» белгисини қўйиб, ўз муносабатларингизни билдириңг.

1. Товарларни кўп импорт қилиш мамлакат иқтисодиётининг яхши ривожланганидан далолат беради.

2. Давлатнинг тўлов балансида импорт ва экспорт ҳажмлари тенг бўлиши шарт.

3. Республикамиз ҳозирча кўпроқ хом-ашёни экспорт қилиб, асбоб-ускуналарни ташқаридан сотиб олмақда.

8. Нима сабабдан мамлакатнинг хом-ашёларни экспорт қилиши яхши кўрсаткич ҳисобланмайди?

Жавоб: _____



Ilhom RAIMOV.

-Varragingiz buncha chiroyli. O'zingiz yasadingizmi?

-Ha, do'stlarim bilan birgalikda yasadik. Xitoy qog'ozim katta bo'lgani uchun ham varragim katta chiqdi. Varrak ganchalik katta bo'lsa, u shuncha yuqori uchadi.

-Uy vazifalaringizni bajarib bo'lganmisiz?

-Maktabdan qaytishim bilan avvalo uy vazifalarimni tayyorlayman. Ukamning darslariga ham qarashaman. Oyimga uy ishlarida ko'maklashib, keyin ko'chaga o'ynaganam chiqaman.

-Bo'sh vaqtingizni o'yin bilangina o'tkazasizmi?

-Yo'q. Karate bilan shug'ullanaman, shaxmat o'ynayman, rasm chizib, naqqoshlik to'garagiga qatnashaman.

-Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

-Men ganch-naqqosh soluvchi, uy ta'mirlovchi usta bo'lmoqchiman. O'zbekistondagi barcha uylarni chiroyli ta'mirlab, naqsh bilan bezab, uy egalriga quvonch hadya etgum bor.

XXX

Habibullo HAMIDULLAYEV.

-Siz nimaga qiziqasiz?

-Men asosan suzishga, futbol o'yiniga

VARRAKLAR QANOTIDA

Ish vaqti tugab, uyga qaytayotib, yo'l bo'yida varrak uchirayotgan bolalarga ko'zim tushdi. Ular mahorat bilan yasagan varraklarini ko'kka uchirish bilan ovora bo'lishar. kimning varragi balandroq uchayotgani haqida o'zaro bahslashardi. Uch o'rtoqning ahilligimi yoki ozodaligimi, bilmadim, nimasidir meni o'ziga jalb qildi-da, ularni suhbatga chorladim. O'zlarini Ilhom Raimov, Habibullo Hamidullayev va Nusratjon Yusupov deb tanishtirgan bolalar Sobir Rahimov tumanidagi 46- maktabning 4-«A» sinfida o'qishlarini aytishdi. Ular ustozlari Munavvarxon opa Isroilovaning qo'lida saboq olisharkan.

qiziqaman. Yana ertak kitoblar o'qiyman. Ukam Abdullo bilan mozaika o'ynaymiz.

-Biror to'garakka qatnaysizmi?

-Suzishga boraman. Chunki suzish insonni chiniqtiradi, bo'yini o'stirib, baquvvat qiladi.

-Uy ishlarida oyingizga ko'maklashasizmi?

-Albatta. Oyijonim ishdan kelgunlarigacha barcha ishlarni muhayyo qilishga harakat qilaman. Bunda ukam ham hissasini qo'shadi.

-Maktabingiz haqida nima deya olasiz?

-Bilim maskani bo'lmish maktabimni juda yoqtiraman. Maktabga har kuni oshiqib borishimning boisi - ustozim Munavvarxon opa Isroilovaning mehribonchiliklaridir. Chunki ular bizni o'z farzandidek ko'radilar. Albatta bu ustozimiz har kuni bizning

boshimizni silaydi degani emas, o'z navbatida ular o'ta talabchandirlar. Masalan, sho'xlik qilib oyna sindirib qo'ysak, o'zaro urushib qolsak, qizlarni xafa qilsak bizlarni o'rinli koyiydilar. Undan tashqari puxta bilim olishimizni nazorat qiladilar. Bu yil boshlang'ich sinfni ham tugatamiz. Birinchi ustozimizdan ayrilish biz uchun og'ir bo'lsa kerak. Katta sinfga o'tsak ham, ular bilan tez-tez ko'rishib turishga, Munavvarxon opamning maslahatlarini olib turishga harakat qilamiz.

-Ulg'aysangiz kim bo'lmoqchisiz?

-Katta bo'lsam, prokuror bo'lmoqchiman. Buning uchun yaxshi o'qishim, O'zbekiston qonunlarini puxta o'rganishim lozim.



XXX

Nusratjon YUSUPOV.

-Siz ham biror to'garakka qatnaysizmi?

-Shaxmat-shashka to'garagiga boraman. Chunki bu o'yin inson miyasini charxlaydi. Keyin fikrlashga, o'ylashga o'rgatadi.

-Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

-Kelajakda men shifokor bo'lmoqchiman. Insonlarning har doim sog'lom bo'lishlarini istayman. Avvalom bor men oyijonimning sog' bo'lishlarini xohlayman. Ular kasal bo'lsalar, yuragingga hech narsa sig'maydi. Oyim sog' bo'lsalar - olam kulgandek bo'ladi. Yer yuzidagi barcha insonlar sog'lom bo'lishsa, menimcha bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak.

-Uning uchun sizningcha nima qilish kerak?

-Uning uchun bolalar sigaret chekmasliklari, vaqti-vaqtida yuz-qo'llarini yuvishlari, sabzavotlarni yuvib iste'mol qilishlari kerak. Shuningdek, har bola bittadan bo'lsa ham ko'chat o'tqazishi lozim. Toza havо manbai bo'lmish bog'larni kengaytirish bilan birga tabiat manzarasining go'zalligi ham ortadi.

-Niyatingizni barcha bolalar eshitishini istardim. Sizlarning orzularingiz ijobat bo'lsin.

Nareiza ABDULLAYEVA

suhbatlashdi.

Bolalar, e bolalar, eshitmadim demanglar, azim shahar Toshkentimizga Xorazm viloyatidan qo'g'irchoqlar, qo'g'irchoqbozlar kelishibdi. Xonqa tumani madaniyat ishlari bo'limi qoshidagi «Jayxun» qo'g'irchoq teatr-studiyasi jamoasi mana bir necha kundan buyon shahrimizning turli maktablarida tomoshalar qo'yishayotganmish... O'tgan yili ham kelishgandi, deysizmi? Ha, barakalla, unutmabsizlar. Shunday ajoyib tomoshalarni unutib bo'larkanmi, axir?! Ularning o'zbek, rus, turkman tillaridagi tomoshalarini Turkmanistonning Chorjo'y, Toshhovuz shaharlari, Navoiy, Farg'ona, Toshkent viloyatlarining ko'plab shahar qishloqlaridagi


"JAYXUN" QO'G'IRCHOQLARI TILGA KIRGANDA

Faxriddin Yoqubov kabi qo'g'irchoqbozlar har bir obrazni qiziqarli, ishonarli va hayotiy chiqishiga astoydil harakat qilishadi, surnay-yu qayroqtosh jo'rligida qo'g'irchoqlarni «tilga kiritishadi». Dastlab folklor-etnografik kuy, qo'shiq va raqslar asosida sahnalashtirilgan o'zbek xalq ertagi «Egri va to'g'ri» spektaklini



bo'lishdi. «Jayxun»ning tomoshalarini ko'rgan bo'lsangiz, sahna ko'rinishlariga, bezaklariga e'tibor bergandirsiz-a? Qo'g'irchoqlarini aytma sizmi, xuddi jonli odamlarga o'xshashadi. Buni qarangi, jamoa a'zolarining

miqyosida o'tkaziladigan turli bayram va tantanalarga ham Mansur aka rejissyorlik qiladilar. «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Tilla tarvuz», «Afandi hangomalari», «Tuhmat tosh yorar» kabi pyessa-dramatik asarlari, sahnalashtirgan spektakllari bolalar teatrlari sahnalaridan tushmay kelyapti. Birgina «Afandi hangomalari» spektaklining turli sahnalarda 3000 martadan ziyodroq namoyish etilishi san'atkorning iqtidoru mahorati yoshu qariga birdek manzur bo'layotganligining dalolatidir. -Kelajakdagi orzularingiz, rejalaringiz qanday?-so'raymiz Mansur akadan. -Orzularimiz bir olam. Yangi-yangi spektakllar yaratib, tomoshalar qo'yib,



tengdoshlaringiz, mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilari, qariyalar uylaridagi kekxa onaxonu otaxonlar ham zo'r qiziqish bilan tomosha qilib, hali-hanuz eslab yurishadi...

1989 yilda iqtidorli rejissyor va aktyor Mansur aka Quryozov tashabbusi bilan tashkil qilingan qo'g'irchoq teatr-studiyasida turli kasb egalari bo'lgan o'ndan ortiq havaskor yoshlar faol ishtirok etadilar. Ikromjon Jumaniyozov, Erkinjon Ro'zimetov, Bahrom Otajonov,

kichkintoylar e'tiboriga havola qilishgandi. Maktab o'quvchilari, bog'cha kichkintoylari ularning chiqishlarini olqishlar bilan qarshi olishdi. Bundan ruhlangan jamoa a'zolari

tinimsiz ishladilar, izlandilar, repertuarlarining rang-barang bo'lishiga harakat qildilar. A.Pushkinning «Oltin baliq», Muxsin Halilning «Susambli», o'zbek xalq ertaklaridan «Tilla tarvuz» kabi asarlarni sahnalashtirib, yosh tomoshabinlar hukmiga havola etishdi. 2000 yil «Jayxun» uchun juda omadli yil bo'ldi. Teatr-studiya jamoasi viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan qator ko'rik-tanlovlar va festivallarda qatnashib, faxrli o'rnlarni egalladi. Andijon

viloyatining Xonobod shahrida «Sog'lom avlod yili»ga bag'ishlab o'tkazilgan «Milliy dorbozlar, an'anaviy sirk san'ati jamoalari va havaskor qo'g'irchoq teatrlarining 2-Respublika ko'rik-festivali»da «Afandi hangomalari» spektakli bilan qatnashib, oliy o'rin sohibi



o'zlari rassomu hunarmand bo'lib, sahnalarni bezashar, qo'g'irchoqlarni ham o'z qo'llari bilan yasashar ekan. Darvoqe, bu ishlarning bariga bosh-qosh bo'layotgan Mansur aka Quryozovni sizlarga tanishtirmabman-ku. Mansurbek akaning ishlari, yumushlari juda ko'p. O'z asosiy ishlari bilan birgalikda teatr-studiyasiga ham rahbarlik qiladilar. Tinimsiz izlanishlari, samarali mehnatlari bois O'zbekiston teatr ijodkorlari uyushmasi hamda «Hunarmand» uyushmalariga a'zo bo'lganlar. 90 yillarda Mansur akaning tashabbusi bilan tuzilgan «Jayxun» teatr-studiyasi asosida Xorazm viloyat Davlat qo'g'irchoq teatri tashkil qilindi. Viloyat



diyorimizning turli burchaklarida yashovchi bolakaylarni xushnud etsak, deymiz. Yana, qo'g'irchoqlarimizni ingliz tilida so'zlatishni ham rejalashtiryapmiz...

Bizning ham tilagimiz shu: «Jayxun»ning qo'g'irchoqlari, ular timsolida xalqimiz ijodi, milliy an'ana va udumlari dunyo kezsinsin, o'zbekning betakror san'atini jahonga ko'z-ko'z qilsin.

Feruza JALILOVA.

Aziz o'quvchilar, orangizda televideniya va radio suhandoni bo'lishni xohlaydigan, orzulari yo'lida hozirdanoq izlanayotgan,

kezlarim edi. Bir kuni Turg'un aka Bekmetov bilan suhbatlashib o'tirgandik. «Ovozning diktorbop ekan. Radioda diktor bo'lib



ishlaydigan Oqil Ubaydullayev bilan tanishtirib qo'ysam, ovozingni bir eshitib ko'rsa bo'larkan», deb qoldilar. Men bajonidil rozi bo'ldim. O.Ubaydullayev, Gubanova, Fedotov singari suhandonlar ovozimni sinab ko'rishdi va «o'zbekning Livitan»i deya hazil aralash baho berishdi. Ovozim suhandonlar bo'limi boshlig'i Turg'unoy opa Yunusxo'jayevaga ham

oson kasb deb o'ylashadi. Sizningcha ham shundaymi?

-Menimcha unday emas. Hozirgina o'zingiz aytganingizdek, har bir kasbning mushkulliklari bo'ladi. O'z kasbiga astoydil mehr qo'ygan, sevgan kishilargina uning mashaqqatlariga bardosh bera oladi. Shu o'rinda farzandlarimga biror kasbni tanlashdan avval, jiddiy o'ylab ko'rishlarini alohida uqtirgan bo'lardim. O'zimga kelsak, dastlab kichik-kichik eshittirishlardan boshlaganman. Xalqimizning oldiga har bir chiqishimiz jiddiy tayyorgarlikni, tinimsiz mehnatni talab qiladi. Menimcha, bu kasbni egallash uchun insonda tug'ma qobiliyat ham bo'lishi kerak. Uning yana bir o'ta nozik va mushkul jihati shundaki, suhandonlar

dam olish imkoni tug'ilib qolgudek bo'lsa, ko'proq nabiralarim davrasida bo'lishga harakat qilaman. Ular bilan sayrga chiqish, menga huzur baxsh etadi. Radio tinglashni, gazeta va jurnallar o'qishni juda yoqtiraman.

-Bilishimizcha, suhandonlik kasbi oilangizda sulola tarzida davom etib kelayotgan ekan.

-Ha, gapingizda jon bor. Turmush o'rtog'im - Mamlakat Po'latova «Vatandosh» radio studiyasi suhandoni. Katta o'g'lim Mardonbek yetuk teleoperator, qizim Dilnozaxon radioda muharrir, kenja o'g'lim Sardorbek akasining izidan boryapti. Nabiralarim hali yosh. Lekin ularning ham sulolamiz davomchilari bo'lishiga ishonchim komil.

-Insonlardagi qaysi fazilatni ulug'laysiz?

-Odamiylilikni.

-Shu kasbni tanlaganingizdan hech afsuslanganmisiz?

-Yo'q. Sababi, shu kasb meni elga tanitdi, obro'-e'tiborimni yuksaltirdi. Qaytadan yosharib qolgudek bo'lsam, yana shu kasbni tanlagan bo'lardim.

-Suhandonlikni orzulagan o'g'il-qizlarga tilaklaringiz.

-O'z ustilarida ko'proq ishlashsin, mashaqqatlardan cho'chishmasin.

-Davron aka, maroqli suhbatlingiz uchun tashakkur. Farzandlaringiz, shogirdlaringiz, qolaversa, biz muxlislaringiz baxtiga omon bo'ling.

Adibaxon RIXSIYEVA,
Murodjon O'RINBOYEV,
O'zMU jurnalistika fakulteti
1-bosqich talabalari.

ko'zguna boqib, kichik-kichik matnlar o'qishni mashq qilayotgan o'g'il-qizlar ko'plab topilsa kerak-a? Biz ham o'quvchilik yillarimizda bu kasbga mehr qo'ygandik, suhandonlarning chiqishlarini, har bir xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatardik, ularga astoydil havas qilardik. Ayniqsa, televideniya suhandoni Davron aka Zunnunovning chiqishlarini juda yoqtirardik. Televizorda ko'rinib qolsalar, xuddi bir yaqin kishimizni, qadrdonimizni ko'rgandek, quvonib ketardik. Yaqinda, sevimli suhandonimiz tabarruk 60 yoshni qoraladilar. Ayyomlari bilan qutlagani borib, Davron akani suhbatga tortdik:

-Bu sohaga kirib kelishingizga kim sababchi bo'lgani haqida gapirib bering.

-1960-61 yillar. Oliyog'ohda o'qib yurgan

SUHANDONIM - QADRDONIM

ma'qul bo'ldi. Shu tariqa suhandon bo'lib qoldim.

-Har bir kasbning o'ziga yarasha qiyinchiligi-yu mashaqqatlari bo'ladi. Ularni yengishda sizga ko'mak bergan, yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan ustozlaringiz haqida ham gapirib bersangiz.

-O'zbekiston xalq artisti Qodir Maqsumovni o'zimning ilk ustozim deb bilaman. Turg'unoy Yunusxo'jayeva, Bahrixon Soatqulova, Inobat Yusupova, Qodir Tojiyevlarni ham meni yetaklagan ustozlarim, deya e'zozlayman. Qiynalganman, yana andak hadik ham bo'lgan.

-Ko'pchilik bolalar suhandonlik juda

doimo xalq nazarida, e'tiborida bo'ladilar. Shuning uchun ham har doim, hamma joyda, hatto to'yu xashamlarda ham o'zlarini munosib tuta bilishlari, yurish-turishlarini nazorat qilishlari lozim.

-Shogirdlaringizdan ko'nglingiz to'lyaptimi?

-Televideniyaning har bir tahririyatida 2-3 tadan shogirdlarim bor, ulardan ko'nglim to'q. Lekin jiddiy tayyorgarliksiz efirga chiqib ketadigan yoshlarimiz ham yo'q emas. Men esa ularga yo'l-yo'riq ko'rsataman, maslahatlarimni ayamayman...

-Bo'sh vaqtlaringizda nimalar bilan shug'ullanasiz?

-Bo'sh vaqtimning o'zi yo'q hisobi. Lekin

PRIMORYEDA 11 KISHI HALOK BO'LDI

Rossiyaning uzoq sharqiy hududi bo'lmish Primoryedagi yong'in natijasida 11 kishi qurbon bo'ldi.

Primoryeda qahraton sovuq hamon hukm surmoqda. Bu yerdagi turar-joy aholisi turli yo'llar bilan uylarini isitishga urinmoqdalar. Xuddi shu isitish moslamasidan chiqqan yong'in oqibatida o'sha 11 kishi halok bo'lgan. Joriy 2001 yilning boshidan beri Primoryeda yong'in natijasida halok bo'lganlarning soni 60 kishiga yetdi.

SIAM EGIZAKLARI KESIB AJRATIB OLINDI

Singapurning mohir jarrohlari Nepal davlatidan bo'lmish bir-biriga yopishib tug'ilgan 10 oylik qiz bola egizaklarni operatsiya orqali kesib, bir-biridan ajratib oldilar.

Egizaklarning juda mayda qon tomirlarini kesib, ajratib olish jarayoni 6 kun davom etdi. Jarrohlar galma-galdan zo'rg'a, qiynalib bu ishning uddasidan chiqdilar.

Bu operatsiya uchun singapurliklar 360 ming AQSH dollari miqdorida mablag' to'pladilar. Ushbu davlatning tajribali va mohir neyroxirurglari va plastik operatsiya bo'yicha mutaxassislar bu operatsiya uchun 6 oy tayyorgarlik ko'rdilar. Shu olti oy davomida jarrohlar operatsiya usullarini zamonaviy kompyuter texnologiyalari orqali o'rgandilar.

GUGUSH YANA QO'SHIQ AYTMOQDA

O'zbek xalqining qo'shiqsevar muxlislariga yaxshi tanish bo'lgan, butun Sharq olamida va umuman butun jahonda o'zining shirali ovozi, yoqimli qo'shiqlari hamda maftunkor chehrasi bilan mashhur bo'lgan eronlik xonanda Gugush hozirda katta sahnaga qaytib, yana qo'shiq aytmoqda.

1979 yilda Eronda bo'lib o'tgan islom inqilobidan keyin mamlakatda Gugushning qo'shiq aytishi ta'qiqlab qo'yilgan edi. Hatto inqilobdan so'ng Gugushni nohaq ayblab, uni qamab qo'yishgan edi.

Amaldagi Eron prezidenti Muhammad Xotamiy hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng, Gugush qamoqdan ozod etilib, o'z oilasi bilan chet elga chiqib ketishiga ruxsat berilgandi. O'shanda Gugush Amerikaga o'z oilasi bilan ko'chib kelgandi.

Bir necha yil davomida Gugush AQSHdagi eronlik xonandalarning «Tanin» nomli studiyasida qo'shiq aytib yurdi. Hozirda ham Gugush o'z albom va lazer disklerini asosan shu studiyada yozib, muxlislariga havola etadi.

Kuni kecha Gugush Birlashgan Arab Amirliklarining yirik shahri Dubayda uzoq tanaffusdan so'ng o'z konsertini berdi. Konsertga kelgan muxlislarning soni 20 mingdan oshib ketdi. Ular asosan eronliklardan iborat edi.

Biz gazetamiz nomidan eronlik mashhur xonanda Gugushga uning uzoq chekkan azoblaridan so'ng, bundan buyog'iga faqat omad va baxt tilab qolamiz.

MARSDA HAYOT BORMI?

Bir necha kun avval AQShning Florida shtatidagi Kanaveral burnida joylashgan kosmodromdan «2001 Mars Odyssey» nomli AQShning avtomatik planetalararo stansiyasi Mars sayyorasiga uchirildi.

Ushbu stansiyaning narxi 297 mln. AQSH dollarini tashkil etmoqda. O'tgan yili ham NASA tashkiloti Marsga 2 marotaba ekspeditsiya uyushtirgan edi. Lekin ular muvaffaqiyatsiz yakunlandi.

«2001 Mars stansiyasi Marsga qilayotgan uchinchi Bu stansiya Marsda yoki yo'qligini va u mavjud yo mavjud o'rganadi.

Bolajonlar! Siz nima deb o'ylaysiz? Qizil sayyora deb atalmish Marsda hayot bormikin?



«2001 Mars stansiyasi Marsga qilayotgan uchinchi Bu stansiya Marsda yoki yo'qligini va u mavjud yo mavjud o'rganadi.

OMMAVIY QABRLAR

Rossiya hukumating rasmiylaridan biri Sergey Yastrejembskiyning ta'kidlashicha, kuni kecha Checheniston hududlaridan birida o'ttizdan ortiq noma'lum jasadlarning ommaviy qabri topilgan.

Shuningdek, Yastrejembskiy oxirgi bir hafta ichida Chechenistondagi rus qo'shinlarining bazalariga jangarilar tomonidan 22 marta hujum qilgan.

DUNYO DARCHASI

TERRORCHILAR SHU YERDA

Checheniston rasmiylaridan biri Mavladi Udugov Rossiya hukumatiga bergan ma'lumotida xavfli terrorchilar - Xattob va Shamil Basayevning Checheniston hududini tark etganligini rad etdi.

Shuningdek, Udugovning ta'kidlashicha, oldin va hozir ham chechen jangarilari qurollarni, xususan, granatomyot, minomyot, avtomat va turli portlovchi moddalarni rus askarlaridan sotib olmoqdalar yoki rus qo'shinlari bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan rusalarning qurollarini olib, hanuzgacha xunrezliklar qilmoqdalar.

YANA TABIIY OFAT

TOKIO. So'nggi bir hafta ichida Yaponiyaning Xirosima shahrida, Xonsyu va Yamaguti orollarida bir necha bor zilzila sodir bo'ldi.

Xirosima shahrida ro'y bergan zilzila natijasida ikki kishi qurbon bo'lgan va minglab turar-joy binolari vayronaga aylangan. Zilzilaning kuchi Rixter shkalasi bo'yicha olti yarim ballni tashkil etgan.

Xonsyu va Yamaguti orollarida sodir bo'lgan zilzilalardan ham Yaponiya hukumati millionlab dollar miqdorida zarar ko'rdi.

KEKSALAR HALOK BO'LISHDI

LISSABON. Portugaliyaning markaziy shaharlaridan birida asosan qariyalarni olib ketayotgan avtobus yo'lining nosozligi tufayli balandlikdan pastga qulab tushdi. Halokat natijasida 14 kishi qurbon bo'lgan va 30 ga yaqin yo'lovchi jarohatlangan.

Oxirgi paytlarda Portugaliyada bunday halokatlar tez-tez sodir bo'lmoqda. Hukumat fikricha, bunga sabab yo'llarning nosozligi va transportlar o'tadigan ko'priklarning eskirib, yaroqsiz holga kelib qolganidir.

ARNOLD SHVARSNEGGER GUBERNATOR BO'LMOQCHI!

Gollivudning barzangi yulduzi Arnold Shvarsenegger 2002 yilda AQShning Kaliforniya shtatida bo'lib o'tadigan gubernatorlik uchun saylovlarda bu lavozimni egallash niyatida qatnashishini ma'lum qildi.

Avstriyalik muxbirlar bilan bo'lgan suhbatda Arnold Shvarsenegger kinodan ketganidan so'ng siyosat bilan shug'ullanishini aytdi. Arnold Shvarsenegger Kaliforniya shtatini juda sevadi, shu sababli ham aynan shu shtatning hokimi bo'lmoqchi.

Agar Arnold Shvarsenegger Kaliforniya shtatiga hokim bo'lsa, u yerdagi energetika inqiroziga barham berib, unga qachonlardir mana shu shtatda yashaydigan odamlar orasida yordam berganlarning hayotini yaxshilamoqchi, ya'ni ularning ijtimoiy mavqei, moddiy ta'minotini o'rttirish niyatida.

Mabodo Arnold Shvarsenegger Kaliforniyaga hokim bo'lsa, u AQShdagi shtatning hokimi bo'lgan va bir vaqtning o'zida ikkita davlat fuqaroligiga ega bo'la turib, bu kabi yuqori lavozimga erishgan birinchi avstriyalik fuqaro bo'ladi.

Lekin AQSH qonunlari bo'yicha, Arnold Shvarsenegger Kaliforniyaga hokim bo'lishga huquqi yo'q. Chunki u AQShda emas, balki Avstriyaning Shtiriya viloyatida tug'ilgan.

Shu sababli ham uning gubernator bo'lishiga imkoniyatidan ko'ra, cheklovlari ko'proq. Lekin Arnold Shvarsenegger chiqmagan jondan umid qilmoqda.

Siyosatchi bo'lishidan oldin Arnold Shvarsenegger «Terminator -3» va «Rostmana yolg'on-2» filmlarida bosh rollarni ijro etishi kerak. Bu filmlarda ijro etadigan rollari uchun Arnold Shvarsenegger 50 mln. AQSH dollari miqdorida gonorar oladi.



MITROVITSADA TO'QNASHUV

Serbiyaning Mitrovitsa shahrida serblar va xalqaro tinchlikparvar kuchlar o'rtasida to'qnashuv sodir bo'ldi.

Serblar ma'lum hududlarga himoya va tartibni saqlash maqsadida to'siqlar qo'yishgan edi. Tinchlikparvar kuchlar shu to'siqlarni olib tashlaganliklari uchun ham serblar to'polonlarni boshlab yuborishgan.

«KUYLAYSIDIGAN SVETOFORLAR»

Latviyaning Port shahri Ventpsils va uning qo'shnisi Liyepaida transport qatnaydigan ko'chalarga «kuylaydigan svetoforlar» o'rnatildi.

Svetoforning qizil chirog'i yonsa, svetofor kuylamay jim turadi, yashil chiroq yonsa, svetofor go'zal musiqa sadolarini chiqaradi. Sariq chiroq yonganda, svetofor telefon ovozigacha o'xshab jiringlaydi.

Liyepai shahrida yashil chiroq yonganda, svetofor bulbulning sayrashiga o'xshab kuylaydi.

Kuylaydigan svetoforlarni shahar ichida o'rnatishdan asosiy maqsad - ko'zi yaxshi ko'rmaydigan va hayajonlanib mashinani boshqaradigan haydovchi va yo'lovchilarga qulaylik yaratib, ularga katta yordam berishdan iborat.



JANGCHILAR SONI QANCHA?

Afg'onistondagi Shimoliy Ittifoqqa tegishli qo'shinlarning soni hozirga kelib 20 mingga yetgan. Bu haqda Shimoliy Ittifoqning tashqi ishlar vaziri Doktor Abdulloh xalqaro hamjamiyatga xabar berdi.

Maxsus tayyorlangan askarlar sonining 20 mingga yetishi, Shimoliy Ittifoqning tolibonlarga qarshi kurashida va umuman, o'z harbiy mavqeiini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

FAR-SABAKDA BOMBA PORTLADI

Isroil. Isroil poytaxti Tel-Aviv yaqinida joylashgan Far-Sabak shahrida kuchli bomba portlashi sodir bo'ldi.

Xabarlariga qaraganda, beliga bombani yashirib, bog'lab olgan kamikadze (biron maqsad yo'lida o'z jonini qurbon qiluvchi) avtobus bekatiga yaqinlashgan, bekatda odamlar ko'paya boshlagach, bu yerga avtobus kelib to'xtagan, ana shu payt kamikadze belidagi bombani portlatib yuborgan. Buning natijasida uning o'zi va yana bir yo'lovchi halok bo'lgan. Shuningdek, qirqdan ortiq yo'lovchi og'ir jarohat olgan.

Isroil tomonining ta'kidlashicha, portlashni falastinlik odam uyushtirgan. Lekin Yosir Arofat bu fikrni noto'g'ri deb rad etdi.

EJEVIT ISTE'FOGA CHIQA'DIMI?

Turkiyaning Istanbul shahrida 2000 dan ortiq odamlar amaldagi bosh vazir Bulent Ejevitga, Vazirlar Mahkamasiga va hukumatga qarshi norozilik namoyishlarini o'tkazdilar.

Bunga sabab, oxirgi paytlarda Turkiya iqtisodiyotining nochor ahvolda qolayotganligidir. Oxirgi hafta ichida Turkiya pul birligi liraning qadri 40 foizga tushib ketganligi ham noroziliklarga sabab bo'lmoqda.

Namoyishchilar bosh vazir Bulent Ejevitning iste'fosini talab qilmoqdalar.

Bosh vazir Bulent Ejeviti esa iste'foga chiqmasligini ta'kidladi. Mamlakatni nochor iqtisodiy ahvoldan olib chiqish uchun Ejeviti Shvetsiya, Daniya va Shveysariya kabi rivojlangan davlatlardan 12 mln. dollar miqdorida yordam so'rarmoqda.

Shohruh KARIMBEKOV tayyorladi.

Мустақиллигимиз шарофати билан республикамизда жуда кўплаб академик лицейлар, касб-хуна колледжлари, гимназиялар очилди. Бизнинг иқтисодиёт гимназиямиз ҳам мана тўрт йилдирки Тошкент Давлат Иқтисодиёт



борасида тинмай изланыптилар. Гимназиямизда турли тадбир ва тантаналар кўплаб ўтказиб турилади. Яқинда Мустақиллигимизнинг ўн йиллиги ва университетимизнинг етмиш йиллигига бағишлаб "Иқтисодчи талаба

рифат ишлари бўйича масъул ходим Ботир Хўжаевлар бошчилигида ҳакамлар ҳайъати тузилди. Танловда билимдон зукко ўқувчилар жамланган гимназиямиз гуруҳининг чиқишлари 2-ўринга муносиб деб топилиб, улар 30000 сўм пул мукофоти ҳамда видео-магнитофон билан тақдирландилар. Танлов-

рим ака Умрзоқов бошчилик қилсалар, адабий тўғарақдаги машғулотларни педагогика фанлари номзоди Абдуманноб Тожиев, Юлдузхон Мирсобирова ҳамда ёш шоира Дилором Турсуновалар олиб бордилар. Адабиётга, санъатга ихлосманд бўлган ёш иқтисодчилар тўғарақда турли тантаналар, шоир ва ёзувчилар билан учрашувлар

ўтказадилар, мушоиралар уюштириб, шеърхонлик қиладилар.

Баҳордаги бўртиб чиққан куртақлар мисол "Ниҳол"-имиз куртақлари ҳам ниш уриб қолди. Уларнинг шеърини машқларини сизлар ҳам ўқиб кўринг ва шоғирдларимизга оқ йўл тиланг.

Юлдузхон
МИРСОБИРОВА,
"Иқтисодиёт"

гимназияси хотин-қизлар
қўмитасининг раиси.

"NIHOL"NING KURTAKLARI

иктидори ва юрт равнақи" деб номланган танлов бўлиб ўтди. Танловда университет миқёсида факультетлар, ихтисослашган олий Бизнес мактаби, лицей, гимназия ўқувчиларидан иборат гуруҳлар қатнашиб, 16 шартдан иборат дастурни ўзбек, рус ва инглиз тилларида намойиш этдилар. Иштирокчиларнинг билимларини баҳолаш учун Фаридон ака Усмонов, маънавият ва маъ-

ни ташкиллашда фаол иштирок этган Сарвар опа Расулова, Абдуманноб Тожиев, Юлдузхон Мирсобирова, Нигорахон Одилова сингари ўқитувчилар ҳам рағбатлантириди. Гимназиямизда мунтазам фаолият кўрсатаётган инглиз тили, математика ва "Ниҳол" деб номланган адабиёт тўғарақларининг ишлари ҳам мақтаса мақтагудек. Инглиз тили тўғарақига талабчан устоз Ка-

ни ташкиллашда фаол иштирок этган Сарвар опа Расулова, Абдуманноб Тожиев, Юлдузхон Мирсобирова, Нигорахон Одилова сингари ўқитувчилар ҳам рағбатлантириди.

Гимназиямизда мунтазам фаолият кўрсатаётган инглиз тили, математика ва "Ниҳол" деб номланган адабиёт тўғарақларининг ишлари ҳам мақтаса мақтагудек. Инглиз тили тўғарақига талабчан устоз Ка-



BAHONALAR BAHSI

Tinglamoqchi bo'lsangiz,
Bahonalar bahsini.
Sinfimizda kuzating,
Algebra darsini.
Mana, kecha muallim,
Tekshirib uy ishini.
Turg'azib qo'ydi qator,
O'n to'rtta o'quvchini.
Ustoz bir-bir so'roqlar,
Boshlandi eng qizig'i.
Bahonalar bahsi,
Qizigandan qizidi.
Bo'lmagan emish chiroq,
Besh o'quvchi uyida.
Uch bola bo'lgan emish,
Tog'asining to'yida.
To'rttasi band bo'libdi,
Kutilmagan ish bilan.
«Kurashibdi» uch bola,
Og'rib qolgan tish bilan.
Bahonalar shuncha ko'p,
Ajabtovur, antiqa.
Farqi yo'q, mos kelarmi,
Yo kelmasmi mantiqqa.
Keling do'stlar, sababin,
Sizga o'zim aytaim.
Yo'q, yo'q, buni bolalar,
Qilmagandir atayin.
Gap shundaki, kech qolib,
Eng a'lochimiz - Behzod.
Ulgurmadi ko'chirib,
Misollarni hech bir zot.

Abdushukur SODIQOV.



SIRLASHUV

Buyuk allomalar vatani bo'lmish,
Qadimiy Qo'qonda ajoyib bir hol.
Qaysi bir ko'chaga kirmang, albatta,
Boshlarini egib turar majnuntol.

Biz kabi sayohat shaydolariga,
Ta'zim ila salom beryaptimi tol?
Nechun boshi egik, sochlari yoyiq,
Balki yori haqda suradi xayol?

Ey o'ychan majnuntol, ko'tar boshingni,
Yetar endi, g'amgin turishing bas qil.
To'kib solay bugun barcha dardlarim,
Sening bilan sirlashmoq istaydi ko'ngil.

...Muhabbat qalblarga kirdimi, tamom,
Qayerga qochishing bilmay qolasan.
Xayoling to'zg'itib yubormoq bo'lib,
Kuchliroq sevganing sezmay qolasan.

Mana, necha kunki, jonim azobda,
Yuragim o'zgaga ocholmayman hech.
Xayol bilan bo'lib sezmay qolaman,
Qanday tong otdi-yu, bo'lganini kech.

Dilorom TURSUNOVA.

Salom do'stlarim, mening ismim Sabohat. Sizlarga oilamiz haqida gapirib bermoqchiman. Chunki oilamiz bilan juda faxrlanamam...

Oilada sakkiz kishi- otam, onam, besh qiz va bir o'g'ilmiz. Har birimizning o'z o'rnimiz bor. Dadam ichki ishlar boshqarmasida, oyim esa Shifokorlar malakasini oshirish institutida ishlaydilar. Sevara, Sayyora opalarim talaba, bizlar esa o'quvchimiz.

Har tong barvaqt uyg'onamiz, opalarimiz tayyorlagan mazali taomlar bilan mazza qilib nonushta qilamiz. So'ngra kattalar ishga, biz esa o'qishga otlanamiz. Maktabdan qaytgach, ust-boshlarimizni almashtirib, ishga kirishamiz. Xonalarni

tozalaymiz, hovli va yo'laklarni supurib, gullarimizga suv quyamiz. Keyin esa bizlarga ruxsat tegadi. Bog'imizga chiqib, dugonalarimiz bilan o'ynaymiz. Shunchaki o'ynamay, bilimimizni charxlash uchun turli fanlar bo'yicha savol-javoblar uyushtiramiz. Hovlimizda mevali daraxtlar

juda ko'p. Ularning soyasidagi supaga o'tirib, har xil kashtalar tikamiz. Keyin esa uka va singillarimiz bilan birgalikda dars tayyorlashga o'tiramiz. Dadajonimning ishlari juda ko'p. Shunday bo'lsa-da, har kuni



SHE'RIM

She'rim, mana bitding nihoyat,
Tunim uyg'oq o'tdi qoshingda.
Bitdim, deya sevinma faqat,
Qancha ish bor hali boshingda.
Hali seni tirnab-tirmashlab,
Necha yuz bor o'chirmog'im bor.
Ko'ngil to'lmay g'ijimlab tashlab,
Takror-takror ko'chirmog'im bor.

Behzod SALIMOV.

kundaliklarimizni tekshirish uchun fursat topadilar. Ukalarimiz oldida uyalib qolmaslik uchun ham a'lo o'qishga astoydil harakat qilamiz. Hademay o'qishlar yakunlanib, yozgi ta'tilga chiqamiz. Oilamizning keksa vakillari - buva va buvjonlarimiz

bizlarni intizorlik bilan kutishyapti. Ularning yonlariga qanot qoqib uchgim, issiq quchoqlariga o'zimni otgim kelyapti. Nazarimda, mening buva va buvjonlarimdek mehribon insonlar topilmasa kerak. Xullas, ana shunaqa, katta, ahil, maqtansa maqtangudek oilamiz bor.

OILAM - FAXRIM MENING



Sabohat
MELIQO'ZIYEVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
148-maktabning
5-sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.
Korxonada manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-2392
Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08